

ALISHER NAVOIYNING “SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDA HIKOYA ICHIDA HIKOYA USULI

Jovliyeva Yulduz Abdivasi qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi 3-kurs talabasi
yulduzjovliyeva442@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Nizomiddin mir Alisher Navoiy “Xamsa” ning 4-dostoni bo`lgan „Sab’ai sayyor” dostonida hikoya ichida hikoya usulining qo`llanilishi o`z ifodasini topgan.

Kalit so`zlar: hikoya , usul, epik asar, syujet, xamsanavislik, doston.

Annotation

In this article, the use of the narrative method within the story is expressed in the 4 th epic of „Khamsa” by Nizamiddin Mir Alisher Navoi.

Key words: story, method, an epic work, plot, philanthropy, epic.

Hikoya ichida hikoya usuli ko`p asrlar oldin paydo bo`lgan. Arab xalq ertaklarini o`zida jamlagan „Ming bir kecha” ham aynan shu usulda yaratilgan. Barchamizga ma`lum va mashhur bo`lgan „Uch og`a-ini botirlar” ertagida ham aynan shu usulning elementlarini ko`rishimiz mumkin. Bu usul nafaqat ertaklarda balki boshqa yirik epik asarlarda ham mavjud. Adabiyotimizda ushbu usuldan juda keng va samarali foydalanilgan. Muhammadsharif Gulxaniyning mashhur „Zarbulmasal” asarida ham adib aynan shu usuldan foydalanadi va bu asar badiyatini yanada oshiradi. Bu usulning o`ziga xosligi shundaki, unda bitta asosiy qoliplovchi hikoya va aynan shu hikoya ichida yana bir qancha hikoya (hikoyacha) lar mavjud bo`ladi.

O`zbek mumtoz adabiyotida ham hikoya ichida hikoya usulida yaratilgan asarlar bir qancha. So`z mulkinging sultoni bo`lmish mir Alisher Navoiy asarlarida ham ushbu usuldan keng foydalanilgan. Xususan fors shoiri Farididdin Attorning „Mantiq ut-tayr” asari ta`sirida yaratilgan „Lison ut-tayr” falsafiy dostonida va Navoiy hazratlarining shoh asari bo`lgan „Xamsa” ning 4-dostoni „Sab’ai sayyor” dostoni shular jumlasidan.

„Sab’ai sayyor” dostoni shu sababdan ham „Xamsa”ning boshqa dostonlaridan ajralib turadi. Asarda Bahrom va Dilorom voqealari qoliplovchi hikoya bo`lib, yetti xil rangdagi qasrda, yetti iqlim yo`lidan kelgan musofirlardan eshitgan hikoyalari ham har biri alohida hikoya hisoblanadi. Ular asar mazmun-mohiyatiga mos bo`lgan mustaqil hikoyalar sanaladi. Ushbu yetti hikoyaning har biri alohida mavzu va syujetga

ega. Hikoyalar haftaning shanba kundan boshlanadi. Shoh Bahrom shanba kuni qora (mushkfom) qasrda hindistonlik sayyohdan Farrux va Ahiy haqidagi hikoyani eshitadi. Ushbu hikoyada fazilatlar gultoji bo`lmish saxovat ulug`lanadi. Yakshanba kuni sariq qasrda rumlik sayyohdan Zayd Zahhob haqidagi hikoyani tinglaydi. Uddaburon Zaydning sarguzashtlari va boshidan kechirganlari ajoyib hikoya qilinadi. Dushanba kuni yashil qasrda misrlik sayyohdan Sa`d haqidagi hikoyani tinglaydi. Hikoya qahramoni Sa`d „Xamsa“ ning ikkinchi dostoni „Farhod va Shirin“ dagi Farhod bilan bog`liq voqealarni yodga soladi. Seshanba kuni esa qizil qasrda tarozlik musofirdan Jo`na va Mas`ud haqidagi hikoyani tinglanadi. Unda Jo`na va Mas`ud o`rtasidagi chin va samimiy do`stlik hikoya qilinadi. Chorshanba kuni moviy qasrda navbatdagi jahongashtadan Mehr va Suhayl haqidagi hikoyani tinglaydi. Hikoyada Mehr va Suhayl o`rtasidagi sof muhabbat, ezgulik va yovuzlik o`rtasidagi azaliy kurash va ezgulik g`alabasi tarannum qilinadi. Payshanba kuni shoh sandal qasrda Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyani tinglaydi. Ushbu hikoyada rostgo`ylik, to`g`riso`zlik ulug`lanadi, yolg`onchilikni o`ziga kasb qilgan Mudbir jazosini oladi, ana shu illat uning boshini yeydi. Muqbil esa to`g`riso`zligi tufayli yuksak martabaga erishadi, murodiga yetadi. Mudbirning taqdiri „Sher va durroj“ hikoyasidagi durrojni esga soladi. Ularning har ikkalasi ham shu illat sababli kulfatlarga duchor bo`ladi. Bahrom juma (odina) kuni oq qasrda xorazmlik musofirdan o`zining suyuqli yori Dilorom haqidagi hikoyani tinglaydi va murodiga yetib Diloromni topadi.

Ushbu hikoyalar dostonning asosiy syujetiga bog`langan bo`lib, buni xorazmlik musofirning Dilorom haqidagi hikoyasi ham tasdiqlaydi. Hikoyalarda adolat, muhabbat, do`stlik, sadoqat, mehr, saxovat, rostgo`ylik kabi ezgu xislatlar ulug`lansa, munofiqlik, yolg`onchilik, sotqinlik, zolimlik qoralanadi.

Xamsanavislik an`anasida shoh Bahrom qissasi bilan yetti hikoya keltirish mavjud bo`lgan. Ammo Alisher Navoiy yettinchi dostonni Bahrom hikoyasiga bog`lashi natijasida asar yaxlit syujetga ega bo`ldi. Bu dostonni yanada go`zal va mukammal bo`lishini ta`minlagan desak mubolag`a bo`lmaydi. Barcha hikoyalar ezgulik va oliyjanoblikning tantanasi bilan nihoyasiga yetadi; sevishganlar murod-maqсадlariga yetadilar, adolat g`alaba qozonadi, yovuzlik va adolatsizlik esa mahv etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Sab`ai sayyor. – T.: G`ulom nomidagi NMIU, 2006.
2. Alisher Navoiy. Sab`ai sayyor (nasriy bayoni bilan). Tahrir hay`ati: A.Qayumov va boshq. – T.: Adabiyot va san`at, 1991.
3. S.Hasanov Navoiyning yetti tuhfası. T.: Adabiyot va san`at, 1991.
4. D.Yusupova D. Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg`unligi. – T.: MUMTOZ SO`Z, 2011.
5. www.ziyonet.uz